



“HUQUQ MAKTABI” MOBIL ILOVASI ORQALI HUQUQIY SAVODXONLIGINGIZNI BEPUL OSHIRING!



ILOVANI APP STORE VA PLAY
MARKETDAN YUKLAB OLING!



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 12.11.2020 yildagi PQ-4891-son



Tibbiy profilaktika ishlari samaradorligini yanada oshirish orqali jamoat salomatligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida

1-ILOVA
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Kasalliklar profilaktikasi va jamoat salomatligi masalalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi komissiya tarkibi

2-ILOVA
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Kasalliklar profilaktikasi va jamoat salomatligi masalalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi komissiya ishini tashkil etish, soha bo'yicha vazirlik va idoralarning respublika — viloyat — tuman darajasidagi vazifalari taqsimoti

3-ILOVA
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga kiritilayotgan o'zgartirishlar va qo'shimcha

Кучга кириш санаси

13.11.2020

Қўшимча ахборот

Улашиш

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI

TIBBIY PROFILAKTIKA ISHLARI SAMARADORLIGINI YANADA OSHIRISH ORQALI JAMOAT SALOMATLIGINI TA'MINLASHGA OID QO'SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR TO'G'RISIDA

Aholida sog'lom turmush tarzini shakllantirish borasidagi ishlarni yanada jadallashtirish, kasalliklarni erta aniqlash va davolashning ilg'or tajribasini joriy etish maqsadida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-iyuldagi “Koronavirus pandemiyasini yumshatish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi va salomatligini saqlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6035-son [Farmoniga](#) muvofiq:

1. Quyidagilar tibbiy profilaktikaning asosiy yo'nalishlari etib belgilansin:

dastlabki profilaktika — qulay atrof-muhitni yaratish (ekologik ahvol, insonlarning mehnat, yashash va dam olish sharoitlarini yaxshilash), aholi salomatligiga salbiy ta'sir etuvchi mahsulotlar ishlab chiqarilishining oldini olish, oziq-ovqat mahsulotlarini, jumladan unni fortifikatsiyalash, tuzni yodlashtirish;

birlamchi profilaktika — emlash, maqsadli skrining va tibbiy ko'riklarni amalga oshirish, oqilona ish va dam olish, sport bilan muntazam shug'ullanish, badantarbiya mashg'ulotlarini kundalik turmush tarziga aylantirish, shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish, sog'lom va to'g'ri ovqatlanish, ortiqcha vazn va semizlikni bartaraf etish, zararli odatlarga qarshi kurashish, inson salomatligi, ta'lim-tarbiyani yaxshilash bo'yicha choralar ko'rish, aholining tibbiy madaniyatini oshirish;

ikkilamchi profilaktika — ma'lum sharoitlarda immun holatining kamayishi, o'ta zo'riqish, adaptiv yetishmovchiliklar sabab yuzaga keladigan kasalliklarning kelib chiqishi, avj olishi yoki qaytalanishiga olib kelishi mumkin bo'lgan aniq xavf omillarini bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq qilish, shuningdek, tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish.

2. Belgilab qo'yilsinki:

2021-yil 1-yanvardan boshlab 40 va undan yuqori yoshdagi fuqarolarda yurak qon-tomir xavfini (gipertoniya, infarkt, insult, qandli diabet va boshqa xavf omillarini) aniqlash bo'yicha tizimli ravishda skrining tekshiruvlari o'tkaziladi;

Aholining sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va jismoniy faolligini oshirish markazi (keyingi o'rinlarda — Markaz)ning tuman (shahar) bo'limlari ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalari binolarida joylashadi hamda ularning xodimlari (keyingi o'rinlarda — jamoat salomatligi tizimi mutaxassislari) tomonidan amalga oshirilayotgan targ'ibot-tashviqot ishlari bilan bir qatorda fuqarolarga tibbiy-profilaktik xizmatlar (maslahatlar, ko'riklar va boshqalar) ko'rsatib boriladi;

mahallalarda, maktabgacha ta'lim tashkilotlari, umumta'lim maktablari va oliy hamda o'rta maxsus ta'lim muassasalarida sog'lom turmush tarzini shakllantirishga ko'maklashuvchi volontyorlar (shu jumladan nafaqadagi shifokorlar, o'qituvchilar, ziyolilar va boshqalar) jamiyatlari tashkil qilinadi.

3. Quyidagilar jamoat salomatligi tizimi mutaxassislarining asosiy vazifalari etib belgilansin:

aholi o'rtasida shaxsiy va jamoat gigiyenasi, sog'lom turmush tarzini shakllantirishda ishtirok etish, aholini savol-javob va ko'riklardan o'tkazish orqali ularda yuqumli bo'lmagan kasalliklar xavf omillarini aniqlash va individual maslahat berish;

sog'lom ovqatlanish tamoyillari, jismoniy faollik asoslari, shaxsiy gigiyenaning ahamiyati, zararli odatlarga berilmaslik bo'yicha targ'ibot tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirish;

yuqumli bo'lmagan kasalliklarning oldini olish borasida profilaktik tadbirlarni tashkil etish uchun hududda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar, muassasa va tashkilotlar ro'yxatini shakllantirish va amalga oshirish;

yuqumli kasalliklar ro'yxatiga olingan hududlarda ular bo'yicha sog'lomlashtirish tadbirini ishlab chiqish, hududiy tibbiyot xodimlari bilan tadbirlarni tashkil etish va ularning bajarilishini nazorat qilib borishda ishtirok etish.

4. Sog'liqni saqlash vazirligi Markazni jalb qilgan holda mahallalar va aholi xonadonlarida, shu jumladan uzoq va olis hududlarda aholi orasida sog'lom turmushni shakllantirish, badantarbiya mashg'ulotlarini kundalik turmush tarziga aylantirish, shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish, sog'lom va to'g'ri ovqatlanish, ortiqcha vazn va semizlikni bartaraf etish, zararli odatlarga qarshi kurashish, fuqarolarning o'z sog'lig'iga bo'lgan munosabatini tubdan o'zgartirish bo'yicha tizimli ravishda targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borsin.

Moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari mazkur bandda ko'rsatilgan chora-tadbirlarni sifatli va to'liq amalga oshirish uchun:

respublika budjeti va mahalliy budget mablag'lari hisobidan Markazga 2021-yilda 2 milliard so'm ajratsin;

2022-yil va kelgusi yillarda respublika budjeti va mahalliy budget parametrlarida 2021-yilda ajratilayotgan mablag'lardan kam bo'lmagan miqdorda mablag'lar ajratilishini nazarda tutsin.

Markaz (B.T. Odilova) bir oy muddatda mazkur bandga asosan ajratilayotgan mablag'lardan samarali foydalanish hamda aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqsin va tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

Vazirlar Mahkamasi Sog'liqni saqlash vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Milliy teleradiokompaniya, nodavlat teleradiokanallar hamda boshqa manfaatdor tashkilotlar bilan birgalikda uch hafta muddatda sog'lom turmush tarzini olib borish masalalariga bag'ishlangan markaziy, hududiy va nodavlat telekanallarda "Salomatlik soati" va boshqa maxsus teleko'rsatuvlar tashkil qilinishini ta'minlasin.

5. Vazirlar Mahkamasi huzurida Kasalliklar profilaktikasi va jamoat salomatligi masalalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi komissiya (keyingi o'rinlarda — Muvofiqlashtiruvchi komissiya) tashkil qilinsin va uning tarkibi **1-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

Quyidagilar Muvofiqlashtiruvchi komissiyaning asosiy vazifalari etib belgilansin:

jamoat salomatligini muhofaza qilish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi va kasalliklar profilaktikasi sohasida davlat organlari va boshqa tashkilotlar faoliyatini ularning yaqindan hamkorligi, samaradorligi va ish uyg'unligini ta'minlash maqsadida muvofiqlashtirish;

mazkur qarorda nazarda tutilgan barcha chora-tadbirlarning to'liq, sifatli va o'z vaqtida ijrosini tashkil etish;

kasalliklar profilaktikasi bo'yicha dastur va chora-tadbirlarning har bir viloyat, tuman (shahar) doirasida amalga oshirilishini hamda mas'ullar tomonidan ularning so'zsiz bajarilishini ta'minlash;

kasalliklar yuzaga kelishining oldini olishga va ularni kamaytirishga, ularning yuqish yo'llari va omillariga ta'sir ko'rsatishga va texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlar bilan bog'liq bo'lgan asoratlar oqibatlarini tugatishga qaratilgan profilaktik tadbirlar o'tkazilishini tashkil etish;

jamoat salomatligini muhofaza qilish bo'yicha belgilangan vazifalarni amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi tizimli kamchiliklarning kelib chiqish sabablari va shart-sharoitlarini aniqlash, tahlil qilish va bartaraf etilishini tashkil etish;

barcha ijtimoiy guruhlarni qamrab olgan holda fuqarolarning sog'lom turmush tarzini, shu jumladan sog'lom ovqatlanish, jismoniy faollik, sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqilishini ta'minlash;

aholi orasida sog'lom turmush tarzining asoslari, jumladan sog'lom ovqatlanish va shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish, jismoniy faollikni qo'llab-quvvatlash, zararli odatlarga qarshi kurashish bo'yicha ommaviy axborot vositalari orqali keng targ'ibot ishlari tashkil etilishini ta'minlash;

sanitariya-gigiyena, epidemiyaga qarshi, zamonaviy va yakka tartibdagi chora-tadbirlar asosida sog'liqni saqlash va mustahkamlashning ijtimoiy-profilaktik yo'nalishlarini rivojlantirish bo'yicha choralar ko'rish;

mulkchilik shaklidan qat'i nazar barcha korxonalar, muassasa va tashkilotlar faoliyatini birlashtiruvchi, aholi salomatligini muhofaza qilish, targ'ib etish va rag'batlantirishni nazarda tutuvchi yaxlit tizim yaratilishini ta'minlash;

aholi salomatligi holatini monitoring qilishning yagona interaktiv tizimini yaratish va bu borada zamonaviy axborot hamda innovatsion texnologiyalarni joriy etilishini tashkil etish;

xalqaro standartlar asosida doimiy populyatsiya tekshiruvlari va kasalliklarni keltirib chiqaruvchi xavf omillari bo'yicha tadqiqot hamda so'rovlar o'tkazilishini tashkil qilish.

6. Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Kasalliklar profilaktikasi va jamoat salomatligi masalalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi komissiya ishini tashkil etish, soha bo'yicha vazirlik va idoralarning respublika — viloyat — tuman darajasidagi vazifalari taqsimoti **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.



[Tibbiy profilaktika ishlari samaradorligini yanada oshirish orqali jamoat salomatligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida](#)

1-ILOVA
[Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Kasalliklar profilaktikasi va jamoat salomatligi masalalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi komissiya tarkibi](#)

2-ILOVA
[Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Kasalliklar profilaktikasi va jamoat salomatligi masalalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi komissiya ishini tashkil etish, soha bo'yicha vazirlik va idoralarning respublika — viloyat — tuman darajasidagi vazifalari taqsimoti](#)

3-ILOVA
[O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga kiritilayotgan o'zgartirishlar va qo'shimcha](#)

Belgilab qo'yilsinki:

Sog'liqni saqlash vazirligi Muvofiqlashtiruvchi komissiyaning ishchi organi hisoblanadi;

Muvofiqlashtiruvchi komissiyaning o'z vazifalari doirasida qabul qilgan qarorlari davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlar uchun bajarilishi majburiydir;

Muvofiqlashtiruvchi komissiya o'z vazifalarini amalga oshirishda tegishli vazirlik va idoralar unga vakolatlari doirasida har tomonlama ko'mak beradilar hamda so'ralgan zarur ma'lumotlarni taqdim etib boradilar;

Sog'liqni saqlash vazirligi kasalliklar profilaktikasi va jamoat salomatligini muhofaza qilish bo'yicha qabul qilingan dasturlar va chora-tadbirlarning ijrosi yuzasidan har chorakda Vazirlar Mahkamasiga tegishli takliflar kiritib boradi.

7. Sog'liqni saqlash vazirligi ikki oy muddatda respublikaning olis va chekka hududlarida oilaviy shifokor, tor soha mutaxassislari va patronaj hamshiralari bo'lgan ehtiyojni qoplash hamda aholiga malakali tibbiy yordam ko'rsatishni yanada yaxshilash maqsadida har bir tibbiyot muassasasida zarur shtat birliklarini joriy qilish asosligi yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga axborot-tahlil ma'lumotnoma kiritilsin.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga [3-ilovaga](#) muvofiq o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritilsin.

9. Sog'liqni saqlash vazirligi ikki oy muddatda qonun hujjatlariga mazkur qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritilsin.

10. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil etishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib sog'liqni saqlash vaziri A.M. Xadjibayev, sog'liqni saqlash vazirining birinchi o'rinbosari A.Sh. Inoyatov, Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati boshlig'i B.K. Yusupaliyev, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari belgilansin.

Mazkur qaror ijrosini har chorakda muhokama qilib borish, ijro uchun mas'ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N. Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisining birinchi o'rinbosari L.N. Tuychiyev zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2020-yil 12-noyabr,
PQ-4891-son

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2020-yil 12-
noyabrdagi PQ-4891-son qaroriga
1-ILOVA

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Kasalliklar profilaktikasi va jamoat salomatligi masalalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi komissiya

TARKIBI

Oldingi tahrirga qarang.

1. B.A. Musayev —Bosh vazir o'rinbosari, *Komissiya raisi*
2. L.N. Tuychiyev —O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisining birinchi o'rinbosari
3. A.A. —Bosh vazir o'rinbosari
Abduxakimov
4. A.M. Xadjibayev—sog'liqni saqlash vaziri
5. A.V. Shin —maktabgacha ta'lim vaziri
6. Sh.X. —xalq ta'limi vaziri
Shermatov
7. I.U. Madjidov —oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri
8. D.H. Nabiyeu —jismaniy tarbiya va sport vaziri
9. I.Y. —innovatsion rivojlanish vaziri
Abduraxmonov
10. R.T. Mamatov —mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vaziri
11. R.Q. Davletov —adliya vaziri
12. P.R. Bobojonov —ichki ishlar vaziri
13. Lavozimi —Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi raisi
bo'yicha



Tibbiy profilaktika ishlari samaradorligini yanada oshirish orqali jamoat salomatligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida

1-ILOVA
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Kasalliklar profilaktikasi va jamoat salomatligi masalalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi komissiya tarkibi

2-ILOVA
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Kasalliklar profilaktikasi va jamoat salomatligi masalalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi komissiya ishini tashkil etish, soha bo'yicha vazirlik va idoralarning respublika — viloyat — tuman darajasidagi vazifalari taqsimoti

3-ILOVA
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga kiritilayotgan o'zgartirishlar va qo'shimcha

14.B.T. Norqobilov —Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi raisi

15.A.Sh. Inoyatov —sog'liqni saqlash vazirining birinchi o'rinbosari

16.A.X. Ko'ldoshev —favqulodda vaziyatlar vazirining birinchi o'rinbosari

17.A.D. Xadjayev —Milliy teleradiokompaniya raisi

18.Lavozimi —Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va bo'yicha Toshkent shahar hokimlari

19.B.K. Yusupaliyev —Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi raisi — Bosh davlat sanitariya vrachi, *Komissiya kotibi*

Izoh: Komissiya a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda uning tarkibiga ushbu lavozimga yangi tayinlangan yoki tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.

(1-ilova O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-dekabrda PF-230-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.12.2024-y., 06/24/230/1096-son)

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2020-yil 12-
noyabrdagi PQ-4891-son qaroriga
2-ILOVA

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Kasalliklar profilaktikasi va jamoat salomatligi masalalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi komissiya ishini tashkil etish, soha bo'yicha vazirlik va idoralarning respublika — viloyat — tuman darajasidagi vazifalari

TAQSIMOTI

Oldingi tahrirga qarang.

T/r	Tashkilot	Bo'g'in	Vazifalar
1.	Sog'liqni saqlash vazirligi	respublika	Jamoat salomatligini muhofaza qilish, mamlakatda sanitariya-epidemiologik osoyishtalikni ta'minlash, aholi orasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish sohalarida yagona davlat siyosatini olib borish; aholi salomatligini muhofaza qilish, kasalliklar profilaktikasi, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, zararli odatlarga qarshi kurashish, aholining tibbiy madaniyatini oshirish va ommaviy sport harakatini tibbiyot profilaktikasi bilan integratsiyalashtirish bo'yicha hamkor tashkilotlarga uslubiy yordam ko'rsatish, qo'shma qarorlarni qabul qilish va ularning joylardagi ijrosini muvofiqlashtirish; aholi salomatligini muhofaza qilish va kasalliklar profilaktikasi bo'yicha respublikada amalga oshirilgan ishlar holatini o'rganish va tahlil qilish hamda Muvofiqlashtiruvchi komissiyasiga har chorakda takliflar kiritish.
		viloyat	Hududlarda aholi salomatligini muhofaza qilish va kasalliklar profilaktikasi bo'yicha qabul qilingan hujjatlarning joylardagi ijrosini ta'minlash; kasalliklar profilaktikasi, ularni keltirib chiqaruvchi omillarni erta aniqlash bo'yicha skrining tekshiruvlarini tashkil etish, natijalar tahlili va ular asosida manzilli chora-tadbirlar ishlab chiqish; kasalliklar profilaktikasi va sog'lom turmush tarzini shakllantirish bo'yicha ommaviy tadbirlarni o'tkazish hamda ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali ushbu tadbirlar targ'ibotini tashkil etish.
		tuman (shahar)	Aholi orasida kasalliklar profilaktikasi, ularni keltirib chiqaruvchi omillarni erta aniqlash bo'yicha maqsadli ko'riklar va skrining tekshiruvlarini o'tkazish, natijalari bo'yicha ma'lumotlarni umumlashtirish va ular asosida tuman (shahar)ning salomatlik profilarni yaratish; jamoat salomatligini muhofaza qilish va kasalliklarni profilaktika qilish bo'yicha tadbirlarni tashkil etish va o'tkazishda birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalariga amaliy-uslubiy yordam ko'rsatish; kasalliklar profilaktikasi va sog'lom turmush tarzini shakllantirish bo'yicha mahalla, ta'lim muassasalari va tashkilotlarda individual hamda guruhli targ'ibot tadbirlarini o'tkazish.



Tibbiy profilaktika ishlari samaradorligini yanada oshirish orqali jamoat salomatligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida

1-ILOVA
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Kasalliklar profilaktikasi va jamoat salomatligi masalalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi komissiya tarkibi

2-ILOVA
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Kasalliklar profilaktikasi va jamoat salomatligi masalalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi komissiya ishini tashkil etish, soha bo'yicha vazirlik va idoralarning respublika — viloyat — tuman darajasidagi vazifalari taqsimoti

3-ILOVA
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga kiritilayotgan o'zgartirishlar va qo'shimcha



Tibbiy profilaktika ishlari samaradorligini yanada oshirish orqali jamoat salomatligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida

1-ILOVA
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Kasalliklar profilaktikasi va jamoat salomatligi masalalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi komissiya tarkibi

2-ILOVA
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Kasalliklar profilaktikasi va jamoat salomatligi masalalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi komissiya ishini tashkil etish, soha bo'yicha vazirlik va idoralarning respublika — viloyat — tuman darajasidagi vazifalari taqsimoti

3-ILOVA
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga kiritilayotgan o'zgartirishlar va qo'shimcha

2.	Maktabgacha ta'limvazirligi	respublika	Maktabgacha ta'lim tashkilotlari va ularning tarbiyalanuvchilari hamda oshpazlari uchun gigiyenik me'yorlarga amal qilish bo'yicha yo'riqnoma va uslubiyatlar ishlab chiqish; tarbiyalanuvchilar orasida sog'lom turmush tarzi, shu jumladan sog'lom ovqatlanish, jismoniy faollik, sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni vertikal tizimda amalga oshirilishini nazorat qilish.
		viloyat	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida talab etiladigan sharoitlarni gigiyenik me'yorlarga mos ravishda tashkil etishni muvofiqlashtirish; tarbiyalanuvchilar orasida sog'lom turmush tarzi, shu jumladan sog'lom ovqatlanish, jismoniy faollik, sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilishini ta'minlash.
		tuman (shahar)	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida: sanitariya-epidemiologik talablarga rioya qilinishi; tarbiyalanuvchilar orasida sog'lom turmush tarzi, shu jumladan sog'lom ovqatlanish, jismoniy faollik, sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilishini ta'minlash; tizimli ravishda "Salomatlik mashg'ulotlari" o'tkazilishini ta'minlash.
3.	Xalq ta'limi vazirligi	respublika	Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida sanitariya qoidalari va gigiyenik normativlar bilan belgilangan talablardan kelib chiqib, vertikal tizim vazifalarini belgilash; o'quvchilar orasida sog'lom turmush tarzi, shu jumladan sog'lom ovqatlanish, jismoniy faollik, sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilishini nazorat qilish; o'quv xonalari yoritilganlik darajasi, havo almashinuvi va o'quvchilar uchun boshqa zarur optimal sharoitlar yaratilganligini nazorat qilish.
		viloyat	Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida sanitariya qoidalari va gigiyenik normativlar bilan belgilangan talablardan kelib chiqib, xalq ta'limi bo'limlarining aniq vazifalarini belgilash; o'quvchilar orasida sog'lom turmush tarzi, shu jumladan sog'lom ovqatlanish, jismoniy faollik, sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilishini ta'minlash; umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quv qurollari, darsliklar va maktab jihozlarining amaldagi gigiyenik normativlarga muvofiqligini ta'minlash; o'quv xonalari yoritilganlik darajasi, havo almashinuvi va o'quvchilar uchun boshqa zarur optimal sharoitlar yaratilganligini ta'minlash.
		tuman (shahar)	O'quvchilar orasida sog'lom turmush tarzi, shu jumladan sog'lom ovqatlanish, jismoniy faollik, sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish; umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quv qurollari, darsliklar va maktab jihozlarining amaldagi gigiyenik normativlarga muvofiqligini nazorat qilish; maktab oshxonalarida oshpazlar tomonidan sanitariya-gigiyenik normalar talablariga rioya etilishi bo'yicha tizimli nazorat o'rnatish.
4.	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi	respublika	Ta'lim muassasalarida sanitariya qoidalari va gigiyenik normativlar bilan belgilangan talablardan kelib chiqib, vertikal tizim vazifalarini belgilash; talabalar orasida sog'lom turmush tarzi, shu jumladan sog'lom ovqatlanish, jismoniy faollik, sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilishini nazorat qilish.
		viloyat	Oliy ta'lim muassasalarida gigiyenik normativlar talablari hamda sanitariya qoida va me'yorlariga amal qilinishini ta'minlash hamda kasalliklar profilaktikasi bo'yicha amalga oshiriladigan profilaktik hamda sog'lomlashtiruvchi tadbirlarni amalga oshirish; talabalar orasida sog'lom turmush tarzi, shu jumladan sog'lom ovqatlanish, jismoniy faollik, sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilishini ta'minlash; talabalar o'rtasida yuqumli kasalliklar profilaktikasi bo'yicha targ'ibot tadbirlarini (davra suhbatlari, savol-javoblar, sinovlar va boshqalar) o'tkazish.
5.	Jismoniy tarbiyava sport vazirligi	respublika	Respublikada aholi orasida jismoniy faollik va ommaviy sportni rivojlantirish bo'yicha yagona davlat siyosatini yuritish; davlat muassasalari va tashkilotlarida jismoniy faollikni amalga oshirish uchun sharoitlar (maxsus sport maydonchalari yoki xonalari, faollashtiruvchi tanaffuslar) yaratilishini tizimli monitoring qilish mexanizmlarini joriy qilish; birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari uchun tibbiy xodimlar kineziologlarni tayyorlash va kineziologiya bo'yicha hamshiralarni qayta tayyorlash uchun o'quv dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etish.
		viloyat	Tuman (shahar)larda jismoniy faollikni qo'llab-quvvatlash va ommaviy sportni keng targ'ib qilish uchun yetarli shart-sharoitlar yaratish; mahalla, muassasa va korxonalarda jismoniy faollikni qo'llab-quvvatlovchi tadbirlarni amalga oshirish, ommaviy jismoniy faollik tadbirlarini tashkillashtirish.
		tuman (shahar)	Mahalla, muassasa va korxonalarda jismoniy faollikni qo'llab-quvvatlovchi tadbirlarni amalga oshirish, ommaviy jismoniy faollik tadbirlarini tashkillashtirish.



Tibbiy profilaktika ishlari samaradorligini yanada oshirish orqali jamoat salomatligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida

1-ILOVA
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Kasalliklar profilaktikasi va jamoat salomatligi masalalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi komissiya tarkibi

2-ILOVA
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Kasalliklar profilaktikasi va jamoat salomatligi masalalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi komissiya ishini tashkil etish, soha bo'yicha vazirlik va idoralarning respublika — viloyat — tuman darajasidagi vazifalari taqsimoti

3-ILOVA
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga kiritilayotgan o'zgartirishlar va qo'shimcha

6.	Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi	respublika	<p>Aholi salomatligini muhofaza qilish, sanitariya-epidemiologik osoyishtalikni ta'minlash, sog'lom turmush tarzini shakllantirish sohalarida Sog'liqni saqlash vazirligi va boshqa mutasaddi tashkilotlar bilan qo'shma qarorlarni tuzish va ularning joylardagi ijrosini ta'minlash;</p> <p>tuman (shahar)lar va viloyatlarda bu borada amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini oshirish maqsadida amaliy-uslubiy yordam ko'rsatish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni belgilash uchun har chorakda Oliy Majlis Senatining yalpi majlisida vazirlik faoliyati yuzasidan hamda sohadagi tizimli muammolar va ularning yechimi to'g'risida axborot berish.</p>
		viloyat	<p>Tuman (shahar)larda kasalliklar profilaktikasi, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, zararli odatlarga qarshi kurashish bo'yicha qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning joylardagi ijrosi bo'yicha jamoat nazoratini o'rnatish;</p> <p>tuman (shahar)lar, shuningdek, mahallalarda kasalliklar profilaktikasi, sog'lom turmush tarzini shakllantirish borasida belgilangan va amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar ijrosini ta'minlashga to'sqinlik qilayotgan omillarni aniqlash, ularni bartaraf etish bo'yicha viloyat-tuman (shahar)larning mas'ul idora va tashkilotlariga, sektor rahbarlariga taqdimnomalar kiritish, shuningdek, bu boradagi muammolarni bartaraf etishda mas'uliyatsizlikka yo'l qo'yayotgan idora va tashkilotlar hamda ularning rahbarlari faoliyati yuzasidan har chorakda xalq deputatlari viloyat Kengashlariga ma'lumot kiritish va axborot berish;</p> <p>“Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida”gi Qonunga muvofiq aholi salomatligini muhofaza qilish, sanitariya-epidemiologik osoyishtalikni ta'minlash borasida mahallalarda mavjud muammolarni bartaraf etish tegishincha oilaviy poliklinikalar, qishloq vrachlik punktlari rahbarlarining axborotlarini eshitish bo'yicha fuqarolar yig'inlariga amaliy yordam ko'rsatish, mavjud muammolar bo'yicha viloyat sog'liqni saqlash va xalq ta'limi boshqarmalariga taqdimnoma hamda Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligiga ma'lumot kiritish.</p>
		tuman (shahar)	<p>Har bir mahallada sog'lom turmush tarzini targ'ib qiluvchi “Salomatlik maktabi” faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish, sog'liqni saqlash, xalq ta'limi va boshqa mutasaddi idora va tashkilotlar bilan hamkorlikda mahallalarda va ular hududidagi ta'lim muassasalarida sog'lom ovqatlanish, jismoniy faollikni qo'llab-quvvatlash, gigiyena talablariga rioya qilish va zararli odatlarga qarshi kurashish bo'yicha tizimli tadbirlarni o'tkazish;</p> <p>har bir mahallada “G'ayratli keksalar” sport guruhini tuzish hamda ular yordamida mahallalardagi katta yoshdagi aholi, jumladan keksa va faxriylar, nuroniy otaxon va onaxonlar orasida tungi paytlarda kamida 1 soat piyoda yurish tadbirini keng targ'ib qilish va ommalashtirish, bu orqali kelajak avlodni sog'lom turmush tarziga targ'ib etish chora-tadbirlarini belgilash;</p> <p>voyaga yetmaganlarning ma'naviy, axloqiy, huquqiy, estetik, jismoniy tarbiyasida ishtirok etishi, ularda sog'lom turmush tarzini shakllantirishga ko'maklashish maqsadida mutasaddi tashkilot va idoralar bilan hamkorlikda har bir mahallada: “Har bir shaxs — bitta nihol”, “Mahallamni obod va ko'rkamligiga men ham hissa qo'shaman”, “Dadam, onam va men — sportchilar oilasimiz!”, “Futbolimiz kelajaklari”, “Charm to'p ustalari”, “Mahallamiz pahlavonlari”, “Mahallamiz stol tennischilari”, “Biz epchil va chaqqonmiz” va hokazo sport-sog'lomlashtirish tadbirlarini mahalla va tuman (shahar) bosqichlarini o'tkazish;</p> <p>mahallalarda keksa va yoshlarning jismoniy faolligini ta'minlash, katta yoshdagi fuqarolarning kechki sayrlarini tashkillashtirish choralari ko'rish;</p> <p>tuman (shahar) veterinariya xizmatlari va fermerlar uyushmasi xodimlari bilan hamkorlikda aholi orasida uy hayvonlarini saqlash qoidalariga qat'iy rioya qilinishiga yo'naltirilgan amaliy-uslubiy va boshqa targ'ibot tadbirlarini amalga oshirish, mutasaddi va manfaatdor tashkilotlar tomonidan fuqarolarga yirik va mayda shoxli hayvonlar, parranda va boshqa uy hayvonlarini saqlash, parvarishlash va oziqlantirish tartiblarini o'rgatishga yo'naltirilgan tarqatma materiallar ishlab chiqilishi va tarqatilishi ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish.</p>



Tibbiy profilaktika ishlari samaradorligini yanada oshirish orqali jamoat salomatligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida

1-ILOVA
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Kasalliklar profilaktikasi va jamoat salomatligi masalalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi komissiya tarkibi

2-ILOVA
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Kasalliklar profilaktikasi va jamoat salomatligi masalalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi komissiya ishini tashkil etish, soha bo'yicha vazirlik va idoralarning respublika — viloyat — tuman darajasidagi vazifalari taqsimoti

3-ILOVA
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga kiritilayotgan o'zgartirishlar va qo'shimcha

7.	Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi	respublika	<p>Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat siyosati shakllantirilishi va amalga oshirilishida ishtirok etish uchun fuqarolar, jamoatchilik birlashmalari va boshqa fuqarolik jamiyati institutlarini jalb qilish;</p> <p>ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida tarbiyaviy, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning o'tkazilishida va o'sib kelayotgan avlodda tabiat va uning resurslariga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish g'oyasini shakllantirishda ishtirok etish;</p> <p>ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni qayta tiklash sohasidagi davlat boshqaruvi bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish.</p>
		viloyat	<p>Atrof-muhitning qulay ekologik holatini, ekologik tizimlar, tabiiy komplekslar va alohida obyektlar muhofaza qilinishini, ekologik sharoitning sog'lomlashtirilishini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni tegishli hududlarda tatbiq etish va ijrosini nazoratga olish;</p> <p>chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi qonunchilikka rioya etilishi yuzasidan davlat nazoratini, mahalliy davlat hokimiyati organlari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan mustahkam hamkorlikda maishiy chiqindilarni yig'ish, tashish, utilizatsiya qilish, qayta ishlash va ko'mish borasida ta'sirchan tizimni amalga oshirish; atmosfera havosini muhofaza qilish sohasidagi qonunchilikka rioya etilishi yuzasidan tegishli hududda davlat ekologik nazoratini o'rnatish;</p> <p>Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar, tuman (shahar)lar hokimlari, prokuratura, ichki ishlar va davlat soliq xizmatining hududiy organlari rahbarlari boshchilik qiladigan kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlar bilan o'zaro hamkorlik qilish.</p>
		tuman (shahar)	<p>Atrof-muhit omillarining inson salomatligiga ta'sirini o'rganish natijalari orqali ishlab chiqilgan muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni boshqarish bo'yicha rejalar ijrosini ta'minlash;</p> <p>chiqindilarni yig'ish, saralash, saqlash, tashish, utilizatsiya qilish, qayta ishlash, ko'mish va realizatsiya qilish tizimini samarali tashkil etish bo'yicha tadbirlarning ishlab chiqilishini tashkillashtirish;</p> <p>atrof-muhit muhofazasi, biologik xilma-xillikni saqlab qolish va oqilona foydalanishga doir masalalar muhokamasi bo'yicha aholining keng qatlamlarida targ'ibot tadbirlarini olib borish.</p>



Tibbiy profilaktika ishlari samaradorligini yanada oshirish orqali jamoat salomatligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida

1-ILOVA
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Kasalliklar profilaktikasi va jamoat salomatligi masalalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi komissiya tarkibi

2-ILOVA
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Kasalliklar profilaktikasi va jamoat salomatligi masalalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi komissiya ishini tashkil etish, soha bo'yicha vazirlik va idoralarning respublika — viloyat — tuman darajasidagi vazifalari taqsimoti

3-ILOVA
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga kiritilayotgan o'zgartirishlar va qo'shimcha

<p>8. Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi</p>	<p>respublika</p>	<p>Jamoat salomatligini muhofaza qilish, jumladan sanitar-epidemiologik barqarorlikni ta'minlash, kasalliklar profilaktikasi, sog'lom turmush tarzini shakllantirish bo'yicha normativ-huquqiy va boshqa hujjatlar (sanitariya qoidalari va gigiyena normativlari, metodika va dasturlar) ishlab chiqish;</p> <p>Davolash-profilaktika muassasalari bilan birgalikda umume'tirof etilgan xalqaro uslublar asosida doimiy populyatsiya tekshiruvlari, fundamental va ilmiy-amaliy tadqiqotlar, maqsadli tibbiy ko'riklar va skrining-so'rovnomalar o'tkazish;</p> <p>aholining kasallanish holatlarini o'rganish, tahlil qilish, tibbiy statistik hisobotlarni yuritish, ularni kamaytirish bo'yicha manzilli dasturlar ishlab chiqish, shuningdek, hududlardagi tibbiy xodimlarga uslubiy va amaliy yordam ko'rsatish;</p> <p>oziq-ovqat va iste'mol mahsulotlariga xavfsizlik ko'rsatkichlari bo'yicha xulosalar berish;</p> <p>tibbiy ta'lim muassasalari bilan birgalikda kasalliklar profilaktikasi va aholining sog'lom turmush tarzini shakllantirish masalalari yuzasidan kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish va ularning uzluksiz kasbiy rivojlanishi bo'yicha tadbirlarni tashkillashtirish va ularda ishtirok etish;</p> <p>Davlat sanitariya-epidemiologiya nazoratini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash;</p> <p>nazorat ostidagi obyektlar elektron bazasini yaratish metodologiyasini ishlab chiqish, "xavfni tahlil etish" tizimini qo'llagan holda nazoratni olib borish, "sanitariya-epidemiologik osoyishtalik" belgisini berish mezonlarini ishlab chiqish;</p> <p>kelib chiqishi oziq-ovqat bilan bog'liq kasalliklar ustidan milliy monitoring olib borish tartibini belgilash;</p> <p>hududiy boshqarmalar faoliyatini boshqarish, ularga uslubiy-amaliy yordam ko'rsatish.</p>
	<p>viloyat</p>	<p>Aholi salomatligini muhofaza qilish, kasalliklar profilaktikasi, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, zararli odatlarga qarshi kurashish, aholining tibbiy madaniyatini oshirish va ommaviy sport harakatini tibbiyot profilaktikasi bilan integratsiyalashtirishda hamkor tashkilotlarga uslubiy yordam ko'rsatish, qo'shma qarorlar ijrosini ta'minlash va ularning joylardagi ijrosini muvofiqlashtirish;</p> <p>aholining salomatlik holatini o'rganish, yuqumli va yuqumli bo'lmagan kasalliklar hamda noto'g'ri ovqatlanish bilan bog'liq kasalliklarning oldini olish bo'yicha tuman (shahar)larda amalga oshirilgan ishlar holatini tizimli ravishda o'rganish, ma'lumotlarni to'plash va har oyda bir marta "hokimlik soati"da muhokama qilish;</p> <p>yuqumli bo'lmagan kasalliklar profilaktikasi va xavf omillarini erta aniqlash bo'yicha skrining tekshiruvlarini tashkil etish hamda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va aholining tibbiy madaniyatini oshirish bo'yicha targ'ibot tadbirlarini tashkil qilish;</p> <p>o'ta xavfli, yuqumli, parazitlar kasalliklari va ommaviy zaharlanishga qarshi kurashish tadbirlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, yuqumli kasalliklarni aniqlash uchun laboratoriya tahlillarini o'tkazish, aholini ionlantiruvchi nur manbalari va radiatsiya xavfidan himoyalash bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish, tuman (shahar)lar hududida sanitariya-gigiyena hamda epidemiyaga qarshi tadbirlar o'tkazilishini nazorat qilish, aholining sanitariya-gigiyena masalalari, karantin, o'ta xavfli va boshqa yuqumli hamda parazitlar kasalliklari, zaharlanishlarni keltirib chiqaruvchi xavf omillarning oldini olish bo'yicha xabardorligini oshirishga qaratilgan tadbirlarni o'tkazish;</p> <p>oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash maqsadida, tumanlararo sanitariya-gigiyena laboratoriyalari orqali tahlillar o'tkazish va oziq-ovqat hamda iste'mol mahsulotlariga xavfsizlik ko'rsatkichlari bo'yicha xulosalar berish;</p> <p>aholining salomatlik ko'rsatkichlari va kasallanish darajasi bo'yicha statistik ma'lumotlar bazasini shakllantirish, tuman (shahar)lar kesimida tahlil qilish;</p> <p>nazorat ostidagi obyektlar elektron bazasini shakllantirish, "xavfni tahlil etish" tizimini qo'llagan holda obyektlarda nazorat olib borish, "sanitariya-epidemiologik osoyishtalik" belgisini berish;</p> <p>obyektlarda aniqlangan sanitariya-epidemiologik osoyishtalik sohasida qonun buzilishlari bo'yicha ma'muriy javobgarlik va boshqa ta'sir (faoliyatni to'xtatish, taqiqlash, cheklash va boshqa) choralarini qo'llash;</p> <p>kelib chiqishi oziq-ovqat bilan bog'liq kasalliklar ustidan monitoring olib borish;</p> <p>obyektlarni foydalanishga qabul qilishda sanitariya qoidalari, me'yorlari va gigiyenik normativlarga muvofiqligi to'g'risida sanitariya-epidemiologik xulosa berish;</p> <p>tuman (shahar) filiallarining faoliyatini tashkil etish va nazorat qilish.</p>



Tibbiy profilaktika ishlari samaradorligini yanada oshirish orqali jamoat salomatligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida

1-ILOVA
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Kasalliklar profilaktikasi va jamoat salomatligi masalalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi komissiya tarkibi

2-ILOVA
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Kasalliklar profilaktikasi va jamoat salomatligi masalalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi komissiya ishini tashkil etish, soha bo'yicha vazirlik va idoralarning respublika — viloyat — tuman darajasidagi vazifalari taqsimoti

3-ILOVA
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga kiritilayotgan o'zgartirishlar va qo'shimcha

			<p>Kasalliklar va ularni keltirib chiqaruvchi xavf omillarini erta bosqichlarda aniqlash bo'yicha birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida maqsadli tibbiy ko'riklar va skrining tekshiruvlarini o'tkazish;</p> <p>aholining salomatlik holatini o'rganish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, yuqumli bo'lmagan hamda noto'g'ri ovqatlanish bilan bog'liq kasalliklarning oldini olish bo'yicha qishloq vrachlik punktlari, oilaviy va ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalarda amalga oshirilgan ishlar holatini tizimli ravishda o'rganish, ma'lumotlarni to'plash va har oyda bir marta "hokimlik soati"da muhokama qilish;</p> <p>sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va aholining tibbiy madaniyatini oshirish yuzasidan targ'ibot tadbirlarini mahallalar, ta'lim muassasalar va tashkilotlarda o'tkazish;</p> <p>o'ta xavfli, yuqumli va parazitlar kasalliklarni laboratoriya tahlillari orqali aniqlash, kasallik o'choqlarida profilaktik hamda epidemiyaga qarshi tadbirlarni amalga oshirish, hududda karantin, o'ta xavfli, yuqumli hamda parazitlar kasalliklar, zaharlanishlar, shuningdek, yuqumli bo'lmagan ommaviy kasalliklarni laboratoriya tahlili asosida aniqlash, kasallik o'choqlarini likvidatsiya qilish va profilaktik tadbirlarni belgilash hamda aholining sanitariya-gigiyena masalalari, karantin, o'ta xavfli, yuqumli va parazitlar kasalliklar, zaharlanish hamda yuqumli bo'lmagan kasalliklarni keltirib chiqaruvchi omillar bo'yicha xabardorligini oshirish;</p> <p>oziq-ovqat va iste'mol mahsulotlariga xavfsizlik ko'rsatkichlari bo'yicha xulosalar berish;</p> <p>aholining kasallanish holatini o'rganish, ma'lumotlarni to'plash, tibbiy statistika hisobotini yuritish;</p> <p>nazorat ostidagi obyektlarda sanitariya qoidalari, me'yorlari va gigiyenik normativlarga rioya etilishi ustidan tekshiruvlar (laboratoriya-instrumental usullarni qo'llagan holda) o'tkazish;</p> <p>tekshiruv natijalariga ko'ra obyektlarning sanitariya qoidalari, me'yorlari va gigiyenik normativlarga mosligini baholash va ularni xavflilik darajasi bo'yicha toifalarga ajratish;</p> <p>"sanitariya-epidemiologik osoyishtalik" belgisini berish jarayonida obyektida sanitariya-epidemiologiya dalolatnomasini rasmiylashtirish;</p> <p>tekshirish davomida aniqlangan sanitariya-epidemiologik osoyishtalik sohasida qonun buzilishlari holatlari bo'yicha ma'muriy javobgarlik va boshqa ta'sir choralari qo'llash bo'yicha hujjatlarni rasmiylashtirish;</p> <p>tekshirish natijasi yuzasidan obyektlarning sanitariya holatini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va ularning ijrosini nazorat qilish;</p> <p>oziq-ovqat xomashyosi va iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish, tashish, saqlash va sotish faoliyati bilan shug'ullanuvchi obyektlar faoliyatining sanitariya-gigiyena normalariga muvofiqligi yuzasidan nazorat qilish.</p>
9.	Mahalliy davlat hokimiyati organlari	respublika	Aholi salomatligini muhofaza qilish va kasalliklar profilaktikasi bo'yicha respublikada amalga oshirilgan ishlar holatini o'rganish va tahlil qilish hamda Muvofiqlashtiruvchi komissiyaga har chorakda takliflar kiritish.
		viloyat	Hududda aholi salomatligini muhofaza qilish va kasalliklar profilaktikasi bo'yicha mutasaddi tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish, amalga oshirilgan ishlarni "hokimlik soatlari"da tahlil qilish.
		tuman (shahar)	Aholi salomatligini muhofaza qilish va kasalliklar profilaktikasi bo'yicha mutasaddi muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirish, amalga oshirilgan ishlarni "hokimlik soatlari"da tahlil qilish.

(2-ilova O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-dekabrda PF-230-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.12.2024-y., 06/24/230/1096-son)

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2020-yil 12-
noyabrda PQ-4891-son qaroriga
3-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga kiritilayotgan o'zgartirishlar va qo'shimcha

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4790-son qarorida:

a) 5-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"5. Respublika ixtisoslashtirilgan epidemiologiya, mikrobiologiya, yuqumli va parazitlar kasalliklar ilmiy-amaliy tibbiyot markazi huzurida yuridik maqomiga ega bo'lmagan Biologik xavfsizlik markazi hamda Gen texnologiyalari markazi tashkil qilinsin";

b) 1-ilovadan "Aholining sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va jismoniy faolligini oshirish markazi" bloki chiqarib tashlansin.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-oktabrdagi "Sog'liqni saqlash sohasida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4847-son qaroriga 1-ilova "Aholining sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va jismoniy faolligini oshirish markazi" bloki bilan to'ldirilsin.

(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.11.2020-y., 07/20/4891/1514-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.02.2024-y., 06/24/36/0130-son; 30.12.2024-y., 06/24/230/1096-son)



Tibbiy profilaktika ishlari samaradorligini yanada oshirish orqali jamoat salomatligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida

1-ILOVA
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Kasalliklar profilaktikasi va jamoat salomatligi masalalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi komissiya tarkibi

2-ILOVA
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Kasalliklar profilaktikasi va jamoat salomatligi masalalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi komissiya ishini tashkil etish, soha bo'yicha vazirlik va idoralarning respublika — viloyat — tuman darajasidagi vazifalari taqsimoti

3-ILOVA
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga kiritilayotgan o'zgartirishlar va qo'shimcha